

**TXAY-IZZA KO'CHALARI KESISHMASIDA TRANSPORT VA PIYODALAR
HARAKATI XARAKTERISTIKASI TAHLILI KESISHMALARDA
YO'L – TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLIISH CHORALARI**

Nazarov Anvar Aripovich

Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası t.f.d professori

Shamsiddinov Samariddin Sirojiddin o'g'li

Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası katta o'qituvchisi

Xadjimetova Shaxnoza Abdulkayevna

Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası assistenti

Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Toshkent xalqaro avtomobil yo'li (TXAY) va IZZA ko'chalari kesishmasida transport va piyodalar harakatini samarali tashkil etish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada piyodalar oqimining yuqoriligi, xavfsizlik choralarining yetarli emasligi, noto'g'ri to'xtagan avtomobillar va jamoat transporti harakatidagi to'siqlar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu hududda yo'l-transport hodisalarining oldini olish, harakat xavfsizligini ta'minlash hamda yo'l infratuzilmasini yaxshilash uchun kompleks chora-tadbirlar taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *Toshkent xalqaro avtomobil yo'li, Izza ko'chasi, yo'l harakati xavfsizligi, transport oqimi, svetofor tizimi, piyodalar yo'lagi, yo'l infratuzilmasi, shahar harakati.*

Poytaxtimiz harakat yildan – yilga o'sib bormoqda. Shahar infratuzilmasi, aholi soni, transport vositalari va ularning harakatlanish ko'lamlari sezilarli darajada ortib kelmoqda. Yirik avtomobil yo'llari va ularning kesishmalari bugungi kunda eng muhim muammolardan biriga aylandi. Toshkent xalqaro avtomobil yo'li (TXAY) va Izza ko'chalari kesishmasi shahar yo'l harakatida strategik nuqtalardan biri bo'lib, u yerda har kuni minglab transportlar harakati va piyodalar qatnovlari kuzatiladi. Ushbu kesishmaning joylashuvi shahar uchun juda muhim. Toshkent xalqaro avtomobil yo'li (TXAY) – shaharni xalqaro trassalar bilan bog'laydigan yirik yo'l hisoblanadi. IZZA ko'chasi esa asosan mahalliy qatnovlar, turar joy dahalari va sanoat zonalari uchun asosiy arteriya hisoblanadi. Har ikkala yo'l kesishganda katta harakat oqimi yuzaga keladi va bu holat kundan – kunga kuchayib bormoqda.

Piyodalar harakati haqida to'xtaladigan bo'lsak, IZZA ko'chasi bo'ylab ko'plab maktablar, savdo nuqtalari, xizmat ko'rsatish obyektlari va ishlab chiqish korxonolari mavjud bo'lgani sababli, bu hududda piyodalar oqimi juda yuqori. Aksariyat hollarda piyodalar belgilangan joylardan emas, o'zlariga qulay bo'lgan joylaridan yo'lni kesib o'tishiga urinishadi. Bu esa yo'l-transport hodisalari xavfini sezilarli darajada oshiradi. Shu jumladan, odamlar uzoq masofani bosib o'tmasligi uchun ham xavfli joylardan o'tishga majbur bo'lmoqda. Aholining katta qismi yosh bolalar, keksa yoshdagilar va ayollar bo'lib, ular uchun xavfsizlik ta'minlanmagan bo'lsa, bu katta ijtimoiy muammoga olib keladi.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

Vol 3. No 1,

Yana bir muhim jihatlardan biri – bu noto'g'ri to'xtagan avtomobillar masalasi. Toshkent xalqaro avtomobil yo'li bo'ylab uning chorrahasida to'xtab turganligi va qatnov qismi chetida noto'g'ri parkofka qilinganligi boshqa avtomobillarning harakatlanishini cheklab qo'ymoqda. Bu holat ayniqsa jamoat transporti uchun noqulay bo'lib, avtobuslar va mashrutkalar yo'lovchilarni tushirish yoki olib ketishda qiyinchiliklarga uchramoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytilish mumkinki, Toshkent xalqaro avtomobil yo'li va IZZA ko'chasi kesishmasida harakatni samarali va xavfsiz tashkil etish uchun bir qator kompleks chora-tadbirlar zarur. Bular jumlasiga quyidagilar kiritish mumkin:

- piyodalar uchun ko'prik yoki yer osti yo'laklarini qurish;
- svetofor tizimini optimallashtirish, ya'ni transport va piyoda oqimiga qarab sozlash;
- yo'l belgilarini yangilash, chiroqlar va yoritish tizimlarini yaxshilash;
- video kuzatuv kameralarini o'rnatish;
- yo'l chiziqlarini qaytadan yangilab chizish;
- jamoat transport bekatlarini xavfsiz va qulay joylariga ko'chirish;
- harakat qatnashchilari orasida madaniyatni oshirish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish;
- yangi rejalashtirish asosida ishlarni amalga oshirish lozim.

Ushbu kesishmada harakatni yaxshilash orqali nafaqat transport oqimini samarali tashkil etish, balki odamlar hayotini saqlab qolish, ular uchun qulay va xavfsiz tizimi sharoitini yaxshilash mumkin bo'ladi. Bu o'z navbatida, butun shaharning transport tizimi samaradorligini oshiradi.


Toshkent Xalqaro Avtomobil Yo'li – IZZA ko'chalari kesishmasida transport oqimining jadalligi jadvalda ko'rsatilgan:

1-jadval.


Hisob vaqti soati	Yengil avtomobillar	Yuk avtomobillari yuk ko'tarish bo'yicha			Avtobuslar	Velomoto-transport	Jami
		2-5t	5-8t	8t dan yuqori			
17 ⁰⁰ -17 ²⁰	2294	27	41	5	33	3	2403
17 ²⁰ -17 ⁴⁰	2278	31	39	2	31	1	2382
17 ⁴⁰ -18 ⁰⁰	2301	22	45	8	30	2	2408
Jami	6873	80	125	15	94	6	7193

2-jadval.

Hisob vaqti soati	Yengil avtomobillar	Yuk avtomobillari yuk ko'tarish bo'yicha			Avtobuslar	Velomoto-transport	Jami
		2-5t	5-8t	8t dan yuqori			
18 ⁰⁰ -18 ²⁰	2320	23	43	3	37	4	2430
18 ²⁰ -18 ⁴⁰	2310	28	51	6	34	6	2435
18 ⁴⁰ -19 ⁰⁰	2348	32	47	1	36	2	2465
Jami	6978	83	141	10	107	12	7330



1-rasm. Bir soatda kesishmadagi transport vositalari oqim jadalligi



2-rasm. Besh soat mobaynida transport vositalari oqim jadalligi



3- rasm. TXAY-IZZA ko'chalari kesishmasidagi avtotransport vositalarining tirbandlik holati keltirilgan

Toshkent xalqaro avtomobil yo'li O'zbekiston Respublikasining eng muhim va yuklanganligi yuqori bo'lgan kesishmalardan biri bo'lganligining sababi – bu yo'l nafaqat ichki shahar transporti uchun, balki xalqaro yuk tashuvchilar uchun ham asosiy yo'llardan biri sifatida xizmat qiladi. Tepada yo'lning real holati tasvirlangan bo'lib, avtomobillar zich, harakat sekinlashgan, asfalt sifati past va piyodalar xavfsizligi ta'minlanmagan.

Bu rasmda tirbandlik sabablari:

- yo'l kengligi harakat oqimiga yetarli emas;
- harakat zanjirida o'zaro muvofiqlashtirilmagan svetoforlar va signalizatsiya tizimi mavjud;
- yo'l bo'yidagi infratuzilmasining to'liq emasligi sababli avtomobillar to'xtab qoladi yoki harakatga juda katta ta'sir qiladi.

Rasmdagi holatda avtotransport vositalari taxminan olganda 250 metrdan 300 metrgacha tirbandlik hosil qilmoqda. Buning sababi yo'l qoplamasining yaxshi emasligi va yo'l belgilarining to'g'ri joylashtirilmaganligi va yo'l chiziqlari umuman olganda ko'rinmaydi. Bu ko'rinmasligi haydovchilarga noqulaylik tug'diradi, yomg'irli ob-havo sharoitida haydovchilar harakati keskin qiyinlashib ketadi. Buning oldini olish uchun yo'l belgilari jihozlarini ta'mirlash lozim.

Yo'l infratuzilmasi yomonligi tufayli quyidagi xavflar kelib chiqishi mumkin. Masalan:

- haydovchilar ushbu joydan qochish uchun yo'lning markaziga qarab harakatlanadi va bu xavfni oshiradi.
- transport vositalarining yurish qismlari tezda yaroqsiz holatga kelib qoladi.
- asfaltning qirralari chuqurlashib boradi, yomg'irli kunlarda suv to'planadi, bu esa sirpanchiq holatiga olib kelishi mumkin bo'ladi.

Respublikamiz hududida sodir bo'layotgan yo'l transport hodisalarining piyodalar ishtiroki bilan ko'payib borayotganligi, ayniqsa xavotirli. Ichki ishlar vazirligi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston hududida yiliga o'rtacha 9-10 mingdan ziyod yo'l-transport hodisalari yuz bermoqda. Bulardan ikki yarim mingdan ortig'ida insonlar halok bo'lmoqda. 2018 yilda

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

Vol 3. No 1,

Respublikamizda 2262 nafar insonlar yo'l transport qurboni bo'lgan. 2019 yil Respublikamizda qayd etilgan yo'l transport hodisalarining 3565 tasi piyodalar ishtiroki bilan sodir etilgan va sodir etilgan. Shuningdek, sodir etilgan YTH larda qurbon bo'lgan barcha yo'l harakati ishtirokchilarning 801 nafari piyodalar bilan bog'liq bo'lgan halokatlar sababli qurbon bo'lgan.



4-rasm. TXAY-IZZA ko'chalari kesishmasidagi avtotransport vositalarining kunning ikkinchi yarimidagi holati

Yuqoridagi rasmdan avtomobil yo'lining chetki qismlarini yaroqsiz holatga kelib qolganini rasmda ko'rishimiz mumkin. Yo'l chetida esa velosiped harakati uchun yo'lak tashkil qilinmagan, velosiped harakatlansa ham avtomobil yo'lga chiqib harakat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-sonli "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va vafot etish holatlarini kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3127-sonli qarori.
3. "Yo'l transport hodisalari va xavfsizlik texnikasi". Qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, 2021-yil.
4. Azizov Q.X. Shahar yo'llarida harakat xavfsizligini tashkil etish. Darslik. 2019 yil.
5. Jumaniyozov J. "Yo'l transport hodisalarini kamaytirish bo'yicha tadqiqotlar" 2018 yil.
6. <https://kun.uz/news/2024/06/25/2024-yilning-5-oyi-davomida-yol-transport-hodisasi-oqibatida-65-nafar-oquvchi-halok-boldi-senat?>